

# XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

---

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING  
ILMIY-METODIK JURNALI

---

**Muassis:**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

**PUBLIC EDUCATION**

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL  
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

**2019**

**1-son**

(yanvar-fevral)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqan boshlagan  
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



## TAHRIRIYAT

- 4 Globallashuv asrida elektron darsliklardan unumli foydalanish – zamon bilan hamnafas yashashning muhim omili



## TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- X. Ibragimov 7 Integratsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy sifatلامي shakllantirish muammolari
- M. Abdullayeva 13 Iqtidorli o'quvchilar bilan ishlash masalasiga doir mulohazalar
- E. Tadjibayev 19 Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'qitiladigan texnologiya fanini rivojlantirish masalalari
- M. Raxmanova 24 Talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari
- A. Ibragimov 30 Harakatli o'yinlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashda o'qituvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar



## TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- M. Murtazayev, S. Dexqonboyeva 35 Umumta'lim maktablarida texnologiya fanini o'qitishning tashkiliy metodologiyasini muvofiqlashtirish asoslari
- S. Nizamova 40 Umumta'lim maktablarida matematik modelning kimyoviy jarayonga tadbiri



## ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- M. Yakubova 45 Chizma geometriya va muhandislik grafikasi darslarida innovatsion texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyati
- G. Anorqulova, G. Ro'zimatova 52 Ta'lim samaradorligini oshirishda o'quvchi shaxsini faollashtirishga qaratilgan ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik asoslari



## TA'LIMDA MENEJMENT

- F. Ibragimova, K. Tadjibayeva 57 Rahbarlik faoliyatida uchraydigan nizolar va ularni oldini olish yo'llari



## MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH

- Z. Yulchiyeva, S. Ruzmetova 64 Professor-o'qituvchining elektron ma'lumotlar bazasi va uni yuritishning o'quv-uslubiy jihatlari



## MAKTABGACHA TA'LIM

- N. Zaripbayeva 69 Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishning o'imi

**Muqaddas RAXMANOVA,**  
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jalik mexanizatsiyalash  
muxandislari instituti pedagogika va  
psixologiya kafedrası o'qituvchisi

## TALABALARDA IJTIMOY FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI

### Annotatsiya

Maqolada hozirgi kunda talabalarda ijtimoiy faollikni rivojlantirish bo'yicha nazariy-metodik asoslar shuningdek, ularda kasbiy amaliyotlar bo'yicha amaliy ko'nikmalarni shakllantirish uchun taklif va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Ijtimoiy faollik, psixologiya, metodika, qadriyatlar, talaba, intellektual, ma'naviy salohiyat.

Статья предоставляет сегодняшним студентам теоретические и методологические основы для развития социальной активности, а также предложения и рекомендации по развитию практических навыков в профессиональной практике.

**Ключевые слова.** Социальная активность, психология, методология, ценности, студент, интеллектуальный, духовный потенциал.

The article provides today's students with theoretical and methodological foundations for the development of social activity, as well as suggestions and recommendations for the development of practical skills in professional practice.

**Key words.** Social activity, psychology, methodology, values, student, intellectual, spiritual potential.

**M**a'lumki, O'zbekiston aholisining aksariyat qismini yoshlar tashkil etadi. Ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo'yicha ko'plab islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa o'z navbatida mazkur masalaning qanchalik dolzarbligidan dalolat beradi. Aniqroq qilib aytganda, yoshlarimizda ijtimoiy faollikni takomillashtirish orqali mamlakatimizning porloq kelajagini ta'minlashimiz mumkin. Shu bois ham, bu masalaga yo'naltirilgan ishlarning ko'lamini tobora ortirib borish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning hayotda o'z o'rnini topishlari uchun mustahkam huquqiy baza shakllangan. Bunga misol tariqasida "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunni keltirib o'tishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarida "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlari" safarbar etilayotganligini ta'kidlashi bejiz emas. Mazkur fikrlar orqali barkamol avlodni ijtimoiy faol kishilar qilib tarbiyalash muhim o'rin egallashi ta'kidlanib, ulardan samarali foydalanish yo'llari va pedagogik imkoniyatlarini aniqlash vazifasi qo'yilgan.

---

Demak, talaba yoshlarni ijtimoiy faol, ma'naviy-axloqiy jihatdan barkamol shaxslar etib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

El-yurt ishonchiga munosib bo'lish uchun xalqimiz farovonligini yanada oshirish, mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi obro'si va nufuzini yuksaltirish ijtimoiy faol insonning bevosita burchi hisoblanadi. Insonning ijtimoiy faolligi o'z faoliyatida xalqini yangi hayot yo'liga olib chiqishdagi aql-zakovati, qobiliyatini safarbar etishida namoyon bo'ladi. Demak, ijtimoiy faol shaxs xalq manfaati, uning ertangi taqdirini o'ylaydigan, mulohaza qiladigan, odamlar dardi bilan yashashi, uning kelajagi uchun o'zini mas'ul deb hisoblashi muhim. Ijtimoiy faollik shaxsning yetukligi, ma'lum axloqiy tamoyillarga ega ekanligi, odamlarga ta'sir ko'rsata olish, millatlararo va fuqarolararo totuvlik madaniyatini mustahkamlash muhitini yaxshilash kabi qobiliyatlarga ega bo'lishi bilan ajralib turadi. Albatta, bunday ijtimoiy faol shaxsni shakllantirishda oila, mahalla, uzluksiz ta'lim, jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalarining muhiti muhim o'rin tutadi. Oliy ta'lim muassasalarida talabalarning mustahkam bilim olishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarni egallashlari, ma'naviy-axloqiy fazilatlarini kamol topishi, ijodiy fikrlashi va atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lishlari bevosita ularning ijtimoiy faolligi bilan bog'liqdir. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish – mustaqil shaxsni o'zining mehnati, mahorati, ishbiarmonligi tufayli ko'pgina ehtiyojlarni qondira oladigan bo'lajak mutaxassisni voyaga yetkazishdir. Bunda talabaning axloqiy-psixologik xususiyatlarini rivojlantirish asosida yot va buzg'unchi g'oyalarga qarshi kurashish, ularga salbiy ta'sir etadigan ijtimoiy, ruhiy, iqtisodiy holatlarning oldini olishda barqarorlik, tinchlikni saqlash demakdir. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish asosida talabalarda jamiyatga, tabiat va o'ziga-o'zi ziyon yetkazmaydigan shaxsni shakllantirish, yurt tinchligini saqlash uchun kurashga jalb etish; o'z faoliyatini insoniyat, jamiyat, xalq manfaatlariga yo'naltirish; har bir talabani madaniy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish va ularning bo'sh vaqti yetarli bo'lishiga erishish; kuchli, adolatli, huquqiy, demokratik jamiyat qurishga bo'lgan xohish-irodasini mustahkamlash; jamiyat va inson muhofazasini saqlashga intilishini har bir talaba turmush tarzining ajralmas qismiga aylantirish xususiyatlarini amalga oshirish oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda oliy ta'lim muassasalarining faoliyati muhim o'rin tutadi.

Har bir xalqda, har bir jamiyatda ijtimoiy faollikni rivojlantirish tizimi mavjud. Chunki ijtimoiy faollik inson salomatligini saqlashga, uning botiniy olamini ma'rifiy boyitishga xizmat qiladi. Shu ma'noda o'z haq-huquqini taniydigan, kuchli qobiliyatga tayanib yashaydigan, atrof-muhitni muhofaza qilishda mustaqil munosabatda bo'ladigan, shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'un holda tasavvur etadigan erkin shaxsni shakllantirishda barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Mana shu mezonlarga asosan ijtimoiy faollikni shakllantirish jamiyatning taraqqi-yoti, kelajagi, avvalo, uning ma'naviy poydevorini mustahkamlaydi. Talabalar shaxsida ijtimoiy faollikni rivojlantirish natijasida ularda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga sodiqlik, milliy-madaniy meros, o'zlikni anglash, insoniy komillikka intilish, fan va texnikaning zamonaviy yutuqlarini egallashga intilishida namoyon bo'ladi. Chunki bo'lajak mutaxassislarning chin e'tiqodi, hushyorlik va mas'uliyati, yaxshini yomondan, aslning soxtadan farqlay olishi ijtimoiy faollikni shakllantirish darajasining mezoni sifatida maydonga chiqadi. Ijtimoiy faollik inson qalbining tub-tubidan qalqib chiqadigan eng toza va ajib tuyg'u, inson hayotiga ma'no beradigan kuch, uni sharaflaydigan sifatlar majmuidir. Ijtimoiy faollikni rivojlantirish natijasida inson irodasi, ma'naviy olami, tafakkuri va dunyoqarashi zamon talablari asosida mushohada qilish qobiliyati shakllanadi.

Bu borada istiqloq yillarida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ta'lim-tarbiyaning umumdavlat dasturi ishlab chiqilib, hayotga joriy etildi.

**Talabalarda odob-axloq xususiyatlarini shakllantirish jihatlari.**

Milliy istiqloq tufayli taraqqiyotning barcha sohalarida jadal rivojlanib borayotgan mamlakatimizda yosh avlodni jahon andozalari talablariga javob beradigan, fan-texnika yangiliklaridan xabardor, mustaqil fikrlay oladigan, hayotga dadillik bilan kirisha oladigan, tadbirkor, ma'naviy jihatdan barkamol qilib voyaga yetkazish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Davlatning asosini ma'naviyat tashkil etadi, ma'naviyatiga e'tibor bermagan davlatning kelajagi ham bo'lmaydi. Darhaqiqat, bugungi kunda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning ahamiyati kattadir. Chunki talabalarning bilimini, aqliy va axloqiy holatlarini shakllantirish, nazorat qilish va baholash davlat miqyosida amalga oshirilmoqda. Shuni aytish kerakki, insonning ma'naviyati uning ruhiy holati, axloqi, odobi, xulqi, madaniyati, psixologik xususiyatlarini shakllanish darajasidan tashkil topadi. Axloq esa ularning individual psixologik xususiyatlari rivojlanishi, aqliy, huquqiy, diniy, iqtisodiy va siyosiy bilimlar zahirida shakllanadi. Mazkur bilimlar o'z navbatida, inson axloqiy sifatlarining kamol topib, boyib borishiga olib keladi, ruhan sog'lomlashtirish imkonini beradi. Demak, axloq insonning ijobiy psixologik sifatlarini majmuidir. Chinakam ma'rifatli odam milliy qadriyatlarni, o'zini anglash, erkin va ozod jamiyatda yashash, mustaqil davlatimizning jahon hamjamiyatiga o'ziga munosib, obro'li o'rin egallashi uchun fidoyilik bilan kurashishi mumkin. Zamonaviy kadrlar oldiga qo'yiladigan eng muhim vazifalardan biri – malakali mutaxassis sifatida o'zligini o'z qobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat hamda xislatlarini bilgan tarzda atrofdegilar mehnatini oqilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mehnatning boshqa sohalarida iqtidorli kasb sohibi sifatida faoliyat ko'rsatishdir. Odamning shaxs sifatida shakllanishi kamolot darajasi odob, axloq, madaniyat, ma'naviyat elementlarining unda qanchalik mujassamlashgani bilan belgilanadi. Odob – bu har bir insonning jamoa bilan bo'lgan muloqotiga hamda yurish-turishida o'zini tuta bilishini ko'rsatadi. Axloq jamiyatda qabul qilingan, jamoatchilik fikri bilan ma'qullangan xulq odob normalari majmui. Madaniyat-jamiyatning va unda yashovchi fuqarolarning faoliyati jarayonida to'plangan barcha ijobiy, aqliy yutuqlar majmuasi. Ma'naviyat – inson ongini aks ettiruvchi barcha ijobiy, intellektual fazilatlar majmuasidir. Aqliy kamolotga erishish irodaviy xatti-harakatlar, uzluksiz faollik, fidoyilik, bilimga chanqoqlik kabilarning bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshadigan jarayondir. Mustaqil fikrlash bu fahmlash, anglash, fikr yuritishdan boshlanadi. Anglash – biror-bir g'oyani tub mazmuniga tushunib yetish. Mushohada – shu g'oyani mantiqan talqin qilish. Tafakkur – inson ongidagi mavjud ilmiy va hayotiy bilimlar majmualaridan keragini saralab olish va amaliyotda qo'llash. Yuqorida sanab o'tilgan yo'nalishlar asosida talaba-yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirish muhimdir. Chunki, talaba ana shu ma'naviy muhitda o'z faoliyatini amalga oshiradi, o'zligini anglaydi. Ma'naviy bilimi bilan muloqotga kirishadi. Shuning uchun, talaba-yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirish samaradorligini ta'minlash ma'naviy muhitga bog'liqdir. Talaba-yoshlarning xulq madaniyati, ma'naviy harakatlarning samarasi o'qituvchi va talabaning o'z faoliyatlariga bo'lgan munosabatlari bilan belgilanadi. O'qituvchi ma'naviy merosning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o'rganishi, amaliy faoliyatda ularga tayanishi shaxsning xulq madaniyatini shakllantirishda alohida ahamiyatga ega. Bunday yondashuv ta'lim-tarbiya jarayonining ishtirokchilaridan o'qituvchi-talabalardan ijodkorlikni talab qiladi. O'qituvchining ijodkorligi talabaning ijodkorligini uyg'otadi. Ular o'z talabalarini vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash bilan

birga ularning qalbida olijanob fazilatlarni shakllantiradi O'qituvchilarning pedagogik faoliyatida shaxsiy faoliyat tizimini ishlab chiqish muhimdir. U samarali mehnat natijasida isbot va dalillar orqali talabalar qalbiga ko'chadi. Ularning tuyg'ulariga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, ularning niyati talabalarni mustaqil yurt quruvchilari, muhandislari, ilmu ma'rifat fidoylari safida ko'rishdir. O'qituvchi ijodkorligi natijasida talaba - yoshlar ajdodlar tarixi, adabiyoti, san'ati, an'analari, va urf-odatlar haqida chuqur bilim oladi. Talabalarning ma'naviy merosga bo'lgan qiziqishi oshadi. Dars jarayonida samimiy, sog'lom ma'naviy muhit yaratiladi. Ma'naviy meros manbalaridan samarali foydalanish natijasida talabalarning xulq madaniyati kamol topadi. Talaba-yoshlarning xulq madaniyatini shakllantirish, birinchidan, dars jarayonining muvaffaqiyatli bo'lishiga, ikkinchidan, ta'lim mazmuniga va o'qituvchi - talaba hamkorlik faoliyatiga bog'liq. Hamkorlikdagi faoliyat ijodkorlikni, mas'uliyatni, faollikni talab qiladi. Bunda: har bir darsdan o'qituvchi maqsadni aniq ko'ra bilishi, amalga oshiriladigan vazifalarni to'g'ri belgilab olishi lozim; dars jarayonidagi bilimlar mazmunining ilmiyligi, izchilligi va tarbiyaviy xarakteri, qiziqarliligi talabalarda ta'lim va tarbiyaviy tomondan o'rganiladigan bilimga bo'lgan qiziqishni kuchaytiradi. Ularning bilimini kengaytirish yuksak xulqli bo'lishdek ko'nikma va malakalarini shakllantiradi. Talabalarning ma'naviy sifatlarini shakllantirishda ularga tarix, adabiyot, milliy urf-odatlar, an'analar haqida bilim berish o'qituvchidan doimo faollik bilan munosabatda bo'lishni talab qiladi. Talabaning ma'naviy ehtiyojini qondirish, qiziqishini o'stirish mustaqil ishlar, har xil ijodiy ishlar orqali amalga oshiriladi. Ma'lumki, shaxs barcha ijtimoiy munosabatlarning majmuasidir, shu sababli uning hayotda mavjud ko'p qirraligidan foydalana bilish lozim. Hamma davrlarda o'qituvchi shaxsiyati qanchalik erkin va o'ziga xos bo'ladigan talabalarga ta'siri kuchli, mehnatining samaradorligi shunchalik yuqori bo'ladi deb hisoblangan. O'qituvchining haqiqiy munosabatlari tizimiga kiradigan shaxsi hamisha uning faoliyatida muhim o'rin tutishi kerak. Chunki talabalarning ma'naviy dunyosini boyitish o'qituvchining munosabatiga, muloqotiga bog'liq. Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, talabalarning ijtimoiy muhit ta'siridagi ma'naviy ehtiyojini qondirish psixologik himoyalash asosida shakllanadi.

#### **Talabalarning ijtimoiy faolligini oshirishda irodaviy xususiyatlarning o'rni.**

Taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi asosiy omil bu – shaxslar bo'lib, ular biosfera va noosferaning insoniyat uchun noma'lum, yangi qirralarini ochish, fanni rivojlantirish, texnika va texnologiya ishlab-chiqarishga qodirdir. Psixologiya fanida inson omili uzluksiz ravishda ta'kidlanib turilishiga qaramasdan, u taraqqiyotni harakatlantiruvchi kuchi ekanligi batamom tan olinmagan. Shu bois, individuallik va umumiylik ("Biz" va "Men") ustuvor rol o'ynashi birlamchi voqelik sifatida talqin qilingan. Bugungi kunda, inson omili, komil inson psixologiyasining bosh maqsadiga aylanib, uning xususiyatlari, fazilatlari, xislatlari, xosiyatlari, sifatleri, ichki imkoniyatlari, iste'dod alomatleri qancha erta ro'yobga chiqarilsa, demak taraqqiyotni yuzaga keltiruvchi komil shaxslarni shakllantirish shunchalik tezlashadi. Inson kamoloti quyidagi bosqichlardan iborat: murakkablik – odam – inson – shaxs – subyekt – komil inson. Inson komillik sari qancha tezkor harakat qilsa, u kamolotni ertaroq egallaydi, taraqqiyotni jadallashtirishga munosib hissa qo'shadi. Shaxsning jamiyatdagi ijtimoiy xulqi va o'zini qanday tutishi, egallagan mavqei ham sababsiz, o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Faoliyatning amalga oshishi va shaxs xulq-atvorini tushuntirish uchun psixologiyada "motiv" va motivatsiya tushunchalari ishlatiladi. Inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot – faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir. Ijtimoiylashuv – har bir shaxsning jamiyatga qo'shilishi, uning normalari, talablari, kutishlari va ta'sirini qabul qilgan

holda, har bir harakati va muomalasida uni ko'rsatishi, shu ijtimoiy tajribasi bilan o'z navbatida o'zgalarga ta'sirini o'tkaza olishi jarayoni. Ta'limning yangi modeli jamiyatda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllanishiga olib keladi. O'zini qadr-qimmatini angalaydigan, irodasi baquvvat, iymoni butun, hayotda aniq maqsadga ega bo'lgan insonlarni tarbiyalash imkoniga ega bo'lamiz. Ana shunday tetik ongli turmush kechirish jamiyat hayotining bosh mezoniga aylanadi. Aynan shaxs faolligini shakllanishida irodaviy sifatning o'zi muhimdir. Chunki inson kundalik faoliyatlarida faollikka harakat qilar ekan u, albatta istaydimi, yo'qmi turli qiyinchiliklarga uchraydi. Bu qiyinchiliklarni yengishda o'zida kuch, matonatni tarkib toptirishi lozim. Irodaviy sifatlardan qat'iyatlilik ham insonning u yoki bu maqsadlarini amalga oshirishga muhim o'rin egallaydi. Kishi irodasining kuchi va qat'iyligi xarakterning irodaga bog'liq bo'lgan qaysi xislatlarida ifodalansa, o'sha xislatlar eng yorqin xislatlardan hisoblanadi. Bu xislatlar har bir kishining xarakterida bir qadar namoyon bo'ladi. Ammo hamma kishilarni va har qanday odamni irodasi kuchli, xakteri qat'iy deb bo'lmaydi, balki bu sifatleri bilan boshqa kishilardan ajralib turgan odamlargina irodasi kuchli, xakteri qat'iy deb ataladi. Xorij psixologiyasida shaxsdagi qat'iyatlilikni irodaning boshqa sifatlardan bo'lmish qaysarlik bilan almashtirishadi. Ko'pgina psixologlar qat'iyatlilik va qaysarlik sifatlarini bir tushuncha sifatida e'tirof etadi. Bunga yaqqol misol sifatida psixologiya lug'atida qat'iyatlilikka berilgan ta'rifni keltirib o'tish joiz. Unga ko'ra, qat'iyatlilik – irodaviy sifatlardan biri bo'lib, qiyinchiliklar va to'siqlarga qaramasdan o'z maqsadi sari intilishga moyilligi mavjudligi bilan tavsiflanadi. Jahon psixologiyasida inson xatti-harakatidagi qat'iyatlilik muhim ahamiyatga ega ekanligi allaqachon tan olingan. Qat'iyatlilik fenomenini jahon psixologiyasining yirik namoyondalaridan K. Levin, J. Atkinson va G. Litvin, R. Krutcher, D. Rayans, A. Kremer, N. Fizer va boshqalar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Irodani bu sifatini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu holat xorij psixologlari uchun motivatsiyani o'rganuvchi mustaqil yo'nalish sifatida yuzaga keladi. Shu bois, qat'iyatlilik sekinlik bilan o'zida qaysarlik, sabr, barqarorlik, uzoqni ko'ra bilishlik kabi sifatleri bilan uyg'un namoyon bo'ladi. Lekin olib borilgan tadqiqotlarda ulami aynan bir xil emas, turlicha narsa ekanligini ko'rsatib o'tsalarida, bizning nuqtayi nazarimizcha, qat'iyatlilik, qaysarlik, sabrlilik bu shaxsda irodani namoyon bo'lishi deb atashimiz mumkin. Ko'p vaziyatlarda qat'iyatlilik fenomenini o'rganishda murakkab intellektual va yechilishi qiyin masalalar, shuningdek, ayrim hollarda test va jismoniy mashqlar yordamida amalga oshirilgan. Shunisi qiziqarliki, bir shaxsda o'tkazilgan turli qat'iyatlilikka doir testlar natijalarini tahlil qilinganda farq ahamiyatsiz darajani tashkil qiladi. Xorij psixologiyasida qat'iyatlilik borasida olib borilgan tadqiqotlarni uch yo'nalishga ajratgan. Birinchi yo'nalish tarafdorlari qat'iyatlilik inson xulq-atvorining muhim belgisi, xarakterning xususiyatlaridan biri sifatida o'rganiladi. Ushbu nazariya tarafdorlarining fikriga ko'ra, vaziyat bilan bog'liq omillar inkor qilinadi, shu bilan bir qatorda ular shaxs xislatlari orqali yashirinadi, deb hisoblanadi. Ikkinchi yo'nalish tarafdorlari qat'iyatlilik sifatini o'zgaruvchanlik bilan bog'lab, ya'ni uni vujudga kelishi omad yoki omadsizlikning kelishiga bog'liqligi tadqiq qilingan. Shunga bog'liq ravishda agar inson uning erishgan yutuqlari baxtli tasodifga emas, balki uni o'ziga bog'liq, deb hisoblashi natijasida shaxsda qat'iyatlilik yuqori darajada namoyon bo'ladi. Albatta, bu jarayonda masalaning qiyin yoki osonligi ham muhim ahamiyatga egadir. Birinchi yondashuvga nisbatan ikkinchi yondashuvda qat'iyatlilik kuchli darajada namoyon bo'ladi. Uchinchi yo'nalish tarafdorlari qat'iyatlilikni motivatsiya muammoli tizimida ya'ni qat'iyatlilikni motivatsiyaga bog'liqligi jihatlari o'rganiladi. J. Atkinson va G. Litvinlarning fikriga qaraganda

motivatsion kuch masalani qat'iyatlilik bilan ijobiy hal qilishni ta'minlasa, omadsizlikdan qochish motivi esa salbiy holatida namoyon bo'ladi. Haqiqatdan olganda, iroda ilk bolalik davridan rivojlanishni boshlaydi va uzoq davom etadi. O'smirlarning irodaviy doirasi ancha qarama-qarshi bo'ladi. Bu davrda neyrodinamik o'zgarishlar yuz beradi va bu o'z navbatida irodaviy sohaning ham o'zgarishiga olib keladi. Natijada, vazminlik va dadillik yanada barqaror bo'lib boradi va jasurlik rivojlana boshlaydi, qaysarlik faqatgina qiziqarli ishlarda vujudga kelishi mumkin, intizomlilik susayadi, o'z shaxsiy fikr va nuqtayi nazariga egalik huquqini tasdiqlash bilan bog'liq qaysarlik kuchayib boradi. Irodaviy aktlarda tashqi stimulyasiyadan ichkiga o'tish holati kuzatiladi. Biroq, bu mexanizm hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. Shunday qilib, shaxs kamolotining keyingi bosqichlarida irodaviy sifatlar taraqqiy etib boradi. Albatta, buning uchun ijtimoiy muhit, shaxslararo munosabatlar va berilayotgan ta'lim-tarbiya muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tish mumkin:

1. Talaba xulq-atvorida ijobiy sifatlarni shakllantirish uchun ota-onalar, maktab jamoatchiligi va mahalla hamkorligini tashkil etish.
2. Milliy an'analarimiz yoritilgan badiiy asarlarni mutolaa va tahlil qilish, ular orasida sahnaviy ko'rinishlar, turli viktorinalar, bahslarni tashkil etish.
3. Qadimiy milliy obidalarimizga va muqaddas qadamjolariga sayohat qilish (talabalar, ota-onalar).
4. Talabalarning uchrashuv va sayohatdan olgan taassurotlarini birgalikda muhokama qilish (talabalar, ota-onalar).
5. Dars davomida talabaning mustaqilligi, erkinligini, faolligini uzliksiz ravishda ta'minlash.
6. Talabalarning milliy qadriyatlar borasidagi o'z qarashlari bilan ommaviy axborot vositalarida qatnashib turishlarini yo'lga qo'yish.
7. Oilada amal qilinayotgan urf-odatlar va an'analarning nima uchun qo'llanilishi, milliy urf-odatlarni diniy urf-odatlaridan farqlay olishga erishish.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. *O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asari.* – T.: O'zbekiston, 2017-yil. – 488 b.
2. Abduraxmonova R. *"Yoshlar ijtimoiy faolligining psixologik xususiyatlari"* – Andijon.: 2014-yil.
3. Mavlonova R.A. va boshqalar. *Tarbiyaviy ishlar metodikasi. OTM uchun darslik.* –T.: Sharq, 2014-yil. – 255 b.
4. <http://www.UzA.uz>